

TADBIRKORLIK (BIZNES) FAOLIYATIGA QARSHI JINOYATLARNI KVALIFIKATSIYA QILISHNING AYRIM MASALALARI

Abdusalimov Ma'murjon To'ychi o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti magistranti.

“International school of finance technology and science” MCHJ Instituti

Bosh yuriskonsulti

Annotatsiya

Mazkur maqola tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar javobgarlik tushunchasi, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashish bilan bog'liq jinoyatlar uchun rivojlangan xorijiy mamlakatlarda javobgarlikka tortish masalalari, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish va qonunga xilof ravishda aralashishga oid jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishdagi muammolar.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish, xususiy mulk, jinoyat kodeksi, jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari, jinoiy javobgarlik.

KIRISH

Tadbirkorlik sub'ektlari huquqlarini himoya qilish, shu jumladan, ularning faoliyatiga asossiz aralashish, noqonuniy tekshirish o'tkazish hamda murojaatlarini ko'rib chiqishdagi qonunbuzilishi holatlarining oldini olish borasida 2018-yilning mamlakatimizda “Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili” deb e'lon qilinishi munosabati bilan PF-5308-sonli Farmonda faol tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qulay huquqiy, tashkiliy sharoitlar yaratish hamda tadbirkorlik sub'ektlarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini va ular faoliyatiga noqonuniy aralashishlarning oldini olish mexanizmlarini yanada takomillashtirish nazarda tutilgan.¹

Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 22 январдаги “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Фаол тadbirkorlik, инновацион гоялар ва технологияларни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5308-сонли Фармони. Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси,



O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub’ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil (Biznes-ombudsman), Savdo sanoat palatasi, Bosh vazirning Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalari huzurida Tadbirkorlarning jamoatchilik kengashlari faoliyatini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METADOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Shaxsning u yoki bu jinoyatni sodir etishda aybliligi masalasini hal etishda tergov organlari, prokuror yoki sud sodir etilgan qilmishning barcha belgilarini o‘zida ifoda etuvchi jinoyat-huquqiy normani tanlashi, ya’ni sodir etilgan ijtimoiy xavfli qilmishni jinoyat-huquqiy jihatdan malakalashi talab etiladi.

Jinoyat huquqi nazariyasida olimlar tomonidan jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish tushunchasi turlicha ta’riflanadi. L.D.Gauxman, A.A.Gersenzon hamda I.V.Andreevlarga ko‘ra jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish – muayyan qilmishning jinoyat qonunida ko‘zda tutilgan u yoki bu jinoyat tarkibining belgilariga mos kelishi², M.I.Korjanskiy va A.G.Leviskiylar esa jinoyatlarni kvalifikatsiya qilish sodir etilgan qilmishni jinoyat-huquqiy baholash, uning belgilarini eng to‘liq ta’riflaydigan jinoyat-huquqiy me’yorni tanlash va unga nisbatan qo‘llash³ deb tushuntirishadi.

Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to‘sqinlik qilish bilan bog‘liq jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda ushbu jinoyatlar hokimiyat yoki mansab vakolatini suiiste‘mol qilish, hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqishning turlaridan biri ekanligiga e’tibor qaratish lozim. Lekin, ushbu holatlarda qilmishni kvalifikatsiya qilishda umumiy va maxsus normalar raqobati yuz beradi. Nazariy qoidalarga muvofiq esa umumiy va maxsus normalar raqobati mavjud bo‘lgan hollarda qilmish maxsus norma – JKning XIII¹ bobida nazarda tutilgan normalar bilan kvalifikatsiya qilinadi. Chunonchi, shaxs sodir etgan qilmishda, bir-biriga zid bo‘lmagan, o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan, tartibga solish ko‘lami yoki mazmuni bilan farqlanadigan ikki yoki undan ortiq

² Гаухман Л.Д. Квалификация преступлений: закон, теория, практика. – М., 2005. – С. 3.; Герцензон А.А. Квалификация преступлений. – М., 2007.; Андреев И.В. Теоретико-правовые основы квалификации преступлений: Автореф. дисс... канд. юрид. наук. – Омск, 2000. – С. 21.

³ Коржанский М.И. Квалификация преступлений. – Киев, 2000. – С. 10-11.; Левицкий А.Г. Квалификация преступлений. – М., 2001. – С. 140.;



normalari alomatlarining mavjud bo'lishi jinoyat-huquqiy normalar raqobati deb topiladi⁴.

Qilmishni jazoni og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishining huquqiy oqibati uning uchun jazoning og'irroq turi tayinlanishida ifodalanadi. Shunga ko'ra og'irlashtiruvchi holatlarni aniqlash jinoyat-huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

R.KABULOV VA A.OTAJONOVLAR OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLAR DEGANDA, JINOYAT TARKIBI BELGILARIGA KIRMAYDIGAN, JINOYATNING OB'EKTIV, SUB'EKTIV HOLATLARINI TAVSIFLAYDIGAN, NORMA SANKSIYASI DOIRASIDA OG'IRROQ JAZO TAYINLASHDA INOBATGA OLINADIGAN HOLATLARNI TUSHUNTIRSA⁵, BOSHQA HUQUQSHUNOSLAR SODIR ETILGAN JINOYAT VA AYBDORNING IJTIMOY XAVFLILIGI YUQORILIGIDAN DALOLAT BERUVCHI HOLATLARNI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLAT SIFATIDA E'TIROF ETISHADI⁶.

YUQORIDA KELITIRILGAN FIKRLARDAN KELIB CHIQIB, OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATNI IJTIMOY XAVFLI QILMISHNING OB'EKTIV VA SUB'EKTIV BELGILARIDAN KELIB CHIQIB, UNING XUDDI SHU TURDAGI QILMISHDAN NISBATAN IJTIMOY XAVFLIROQ EKANLIGINI ANGLATUVCHI BELGI DEYISH MUMKIN.

OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARDA QILMISHNING SODIR ETILISHI BU JINOYAT TARKIBINING OB'EKTIV YOKI SUB'EKTIV TOMONIGA MANSUB BELGISI HISOBLANADI. YA'NI, QILMISHNING SODIR ETILISH USULI VA XUSUSIYATINING IJTIMOY XAVFLILIK DARAJASI BILAN BOG'LIQ. OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARNING QILMISHNI KVALIFIKATSIYA QILISH HAMDA JINOYAT SODIR ETGAN SHAXSGA NISBATAN JAZO TAYINLANISHIGA TA'SIR QILGANLIGI SABABLI HAM QONUN CHIQUARUVCHI JKNING 56-MODDADA JAZONI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLATLARNING QAT'IY RO'YXATINI BELGILAGAN.

QAYD ETISH KERAKKI, SODIR ETILGAN IJTIMOY XAVFLI QILMISHNING XUSUSIYATINI E'TIBORGA OLIB, SUD MAZKUR RO'YXATDA KELITIRILGAN HOLATLARNI JAZONI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLAT DEB TOPMASLIGI MUMKIN. BIROQ, AKSINCHA, SUD JAZO TAYINLASHDA MAZKUR RO'YXATDA KELITIRILMAGAN HOLATLARNI OG'IRLASHTIRUVCHI HOLAT SIFATIDA BAHOLASHI MUMKIN EMAS.

⁴ Найимов С. Қилмишни жиноят-хуқуқий нормалар рақобатида квалификация қилишнинг назарий ва амалий масалалари: Юрид. фан. номз. дисс. – Тошкент: ТДЮИ, 2007. – Б. 77.

⁵ Jinoyat huquqi. Darslik. (To'ldirilgan va qayta ishlangan ikkinchi nashri) / R.Kabulov, A.A. Otajonov va boshq. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. –B. 335.

⁶ Рустамбаев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят ҳуқуқи курси. II том. Умумий қисм. Жазо тўғрисида таълимот. Олий таълим муассасалари учун дарслик. –Т.: ИLM ZIYO, 2011. –Б. 100.



Tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik belgilangan jinoyat qonuni normalarida qilmishning og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganligi uchun kvalifikatsiya belgilari ko'rsatilgan.

Ushbu jinoyatlar quyidagi:

- ob'ektiv belgilariga ko'ra – ko'p yoki juda ko'p miqdorda zarar yetkazib;
- sub'ektiv belgilariga ko'ra – bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til birlashtirib yoki uyushgan guruh manfaatlarini ko'zlab sodir etilgan holda kabi og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, qilmishni kriminalizatsiya qilish jamiyatda pishib yetilgan ijtimoiy zarurat bilan bog'liq hamda u jinoyat qonunchiligini takomillashtirishning asosiy yo'nalishlaridan hisoblanadi. Bu haqda so'z yuritgan N.Lopashenko kriminalizatsiyani jinoyat-huquqiy siyosatni amalga oshirish usullari sifatida tushuntiradi⁷. Shunga ko'ra amaldagi jinoyat qonunchiligiga tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini jinoyat-huquqiy vositalar yordamida qo'riqlashda qonun chiqaruvchi qonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan, asosiy soliq to'lovchi hamda davlat ijtimoiy funksiyalarini bajarayotgan sub'ektlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini mustahkamlashni maqsad qilgan. Buning o'zini tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan jinoyat-huquqiy mexanizm yordamida alohida muhofazalash, tadbirkorlik faoliyatini jinoyat ob'ekti sifatida belgilash deb tushunish lozim. Shu mantiqdan qaraganda, shuningdek XIII¹ bobda jinoyat tarkiblari xususiyatidan kelib chiqib noqonuniy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan tadbirkorlik sub'ektlari faoliyati jinoyat-huquqiy muhofaza qilinmaydi. Ya'ni, ularga nisbatan sodir etilgan qilmishda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish jinoyati tarkibi mavjud bo'lmaydi. Bu holda qilmish hokimiyat yoki mansab vakolati doirasidan chetga chiqish sifatida baholanadi.

Bundan tashqari mulk huquqini noqonuniy ravishda cheklash, undan mahrum etish, xususiy mulkka tajovuz qilish, mulkdorga oldindan maqbul bo'lmagan shartlarni majburan qabul qildirish kabi harakatlar natijasida og'ir oqibatlar kelib chiqishini ham istisno etib bo'lmaydi.

Oliy sud Plenumining "Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq ishlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi qaroriga 2015 yil 13 noyabrda kiritilgan

⁷ Уголовная политика/Н.А.Лопашенко. – М.: Волтерс Клувер, 2009. С.23.



o'zgartirishlar bilan O'R MJtK XVI¹ bobida tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish uchun ma'muriy javobgarlik belgilanganligi qayd etilib, "tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish" tushunchasi mazmuni bayon qilingan.

JK 192¹-m.ning ikkinchi qismiga muvofiq, xususiy mulk huquqini buzish ko'p miqdorda zarar yetkazib ("a" b.) va bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirib sodir etilganligi uchun javobgarlikni og'irlashtiruvchi holatlar belgilangan. Qilmishni JK 192¹-m.ning ikkinchi qismi "b" bilan kvalifikatsiya qilish uchun mazkur jinoyatni sodir etgan shaxslarni hammasi jinoyatning ob'ektiv tomonini qisman yoki to'laligicha birga bajargan bo'lishlari lozim. Agar jinoyat bir shaxs tomonidan sodir etilib, uni tashkilotchisi, yordamchisi va dalolatchisi boshqa shaxslar bo'lsa, ularning harakatlari bajaruvchi tomonidan sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlik belgilangan normaning tegishli qismi yoki bandi bilan JK 28-moddasi orqali kvalifikatsiya qilinadi.

JK 192²-m. 2-q.da nazarda tutilgan qilmish tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyatini tekshirish va moliya-xo'jalik faoliyatini taftish qilish ko'p miqdorda zarar yetkazib yoki bir guruh shaxslar tomonidan oldindan til biriktirgan holda sodir etishda ifodalanadi. Umuman olganda tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish jinoyatlarida og'irlashtiruvchi holatlarda yetkazilgan zarar miqdorlari JK Sakkizinchi bo'limiga ko'ra aniqlanadi.

Tadqiqot davomida qilmishni JK 192⁴-m. bilan kvalifikatsiya qilishda ayrim munozarali holatlar aniqlandi. Ma'lumki, JK 192⁴-m.da nazarda tutilgan qilmish maxsus sub'ekt tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini pul mablag'lari yoki boshqa moddiy qimmatliklarni ajratishda ifodalanadigan homiylik yoki boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish bilan sodir etiladi. Agar jabrlanuvchi tadbirkorlik sub'ekti bo'lmaschi, davlat ro'yxatidan o'tmagan yoki tadbirkorlik faoliyati bilan qonunga xilof ravishda shug'ullanayotgan bo'lsa qilmish qanday kvalifikatsiya qilinadi?

Bu vaziyat bo'yicha ikki xil versiya ko'rib chiqiladi:

1) maxsus sub'ekt tadbirkorlik sub'ektini davlat ro'yxatidan o'tgan-o'tmaganligini, uning faoliyati qonuniy yoki g'ayriqonuniy ekanligini har doim ham aniq bilavermaydi. Aybdorning qasdi jabrlanuvchining tadbirkorlik faoliyati natijasida qo'lga kiritilgan pul mablag'lari, moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog'liq homiylik yoki boshqa tadbirlarga majburiy jalb etishga qaratilgan. Lekin, aslida



jabrlanuvchi tadbirkor emas. Bu vaziyatda JK 192⁴-modda ob'ekti mavjud emas. Bunday hollarda qilmish JK 206-modda bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Qilmish sodir etilgan paytda tadbirkorlik faoliyati belgilangan tartibda tugatilgan shaxslarni homiylikka va boshqa tadbirlarga majburiy jalb etish haqida ham shu fikrni aytish mumkin.

2) maxsus sub'ekt jabrlanuvchining davlat ro'yxatidan o'tmaganligini, uning faoliyati g'ayriqonuniy ekanligini aniq bilgan holatda aybdorning qasdi jabrlanuvchining pul mablag'lari, moddiy qimmatliklarni ajratish bilan bog'liq homiylik yoki boshqa tadbirlarga majburiy jalb etishga qaratilgan bo'lsa, qilmish JKning 192¹-m. bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Bundan tashqari, tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar formal tarkibga egaligi uchun ham JKning 206-m. ob'ektiv tomonidan farq qiladi. Jumladan, qilmishni JKning 206-m. bilan kvalifikatsiya qilish uchun fuqarolarning huquqlari, qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari yoki davlat, jamoat manfaatlari ko'p miqdorda zarar yoxud jiddiy ziyon yetkazilishi lozim.

Agar maxsus sub'ekt tomonidan tadbirkorlik sub'ektlarini tijorat tashkilotlariga, siyosiy partiyalar, harakatlarga pul mablag'lari va boshqa moddiy mablag'lar berish, o'zga shaklda yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlashga majburan jalb qilinganda qilmish JK 192⁴-m. bilan kvalifikatsiya qilinadi. Garchi, homiylik to'g'risidagi qonunchilikda tijorat tashkilotlar, siyosiy partiyalar va harakatlarga pul mablag'lari hamda boshqa moddiy mablag'lar berish, o'zga shaklda yordam ko'rsatish, ularni qo'llab-quvvatlash homiylik hisoblanmasada⁸, fikrimizcha, bunda qilmish mansabdor shaxs yoki xizmatchining qasdi yo'nalishi bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim.

Bundan tashqari, saylovoldi, shuningdek referendumga qo'yilgan masalalar tashviqotni bo'yicha homiylik vositasida qo'llab-quvvatlash taqiqlanadi.

Agar maxsus sub'ekt tomonidan tadbirkorlik sub'ekti saylovoldi, referendumga qo'yilgan masalalar tashviqoti bo'yicha homiylik qilishga majburanlanganda qilmish JKning 192⁴ va 147-m. bilan jinoyatlar jami tariqasida kvalifikatsiya qilinishi lozim. Shuningdek, maxsus sub'ekt tadbirkorlik sub'ektini qonunga zid bo'lgan muayyan faoliyat – qimorxonalar tashkil etish yoki fohishaxona saqlash kabi

⁸ Ўзбекистон Республикасининг “Ҳомийлик тўғрисида”ги Қонуни. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2007 й., 17-18-сон, 174-модда; 2008 й., 52-сон, 513-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда; 2016 й., 17-сон, 173-модда.



harakatlarni homiylik vositasida qo'llab-quvvatlashga majburan jalb qilganda qilmish JK 192⁴-m. hamda JKning tegishli moddasi (131-m.; 278-m.) yoki unga qiziqtirish bilan kvalifikatsiya qilinadi.

Tadqiqot davomida tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlik masalasini tahlil qilishda xorijiy davlatlar tajribasini o'rganganimizda qilmishni kvalifikatsiya qilish bilan bog'liq ayrim masalalar e'tiborimizni tortdi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlarning ob'ektiv belgilarini tahlil etar ekan, K.A.Vorojko bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq tadbirkorlik sub'ektiga nisbatan to'sqinlik qilishda ifodalanadigan qilmishning sodir etilganligi holatini kvalifikatsiya qilishda muammo mavjudligini keltiradi⁹. Uning fikricha, tadbirkorlik faoliyatiga to'sqinlik qilishda ifodalanadigan qilmish ikki yoki undan ortiq tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga qarshi qaratilgan hollarda RF JK 169-m.da jinoyatlar jami tariqasida qilmishni kvalifikatsiya qilish imkoni mavjud emas. Aynan shu muammoni O'zbekiston Respublikasi JKning biz tahlil etayotgan barcha moddalariga ham tegishli deyish mumkin. Negaki, JKning 192¹, 192², 192³, 192⁴, 192⁵, 192⁶ va 192⁸-m.da nazarda tutilgan qilmishlar nazariy jihatdan faqatgina bitta tadbirkorlik sub'ektiga emas, balki bir vaqtning o'zida bir nechasiga qarshi sodir etilishi mumkin.

Masalan, bir guruh tadbirkorlik sub'ektlariga berilgan imtiyozlarni qo'llashni qonunga xilof ravishda rad etish yoki qo'llamaslik. Bunday hollarda normaning joriy konstruksiyasiga ko'ra bir necha tadbirkorlik sub'ektlariga nisbatan ular faoliyatiga to'sqinlik qilish, qonunga xilof ravishda aralashish natijasida mazkur tadbirkorlarga yetkazilgan jami zarar ko'p miqdorni yoki juda ko'p miqdorni tashkil etsa qilmish og'irlashtiruvchi belgi bilan kvalifikatsiya qilinadi. Lekin, qilmishning takroran sodir etilganligi uchun javobgarlik differentsiatsiya qilinmagan. Vaholanki, JK Maxsus qismida 66 ta jinoyat tarkibida "takroriylik" og'irlashtiruvchi belgi sifatida o'rnatilgan.

Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tegishli qonun va qonunosti hujjatlari ikki yarim mingga yaqinni tashkil etishi, bu kabi holat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishni yengillashtirish, qonun

⁹ Ворожко К.А. Основные направления оптимизации уголовного законодательства об ответственности за незаконное вмешательство должностных лиц в предпринимательскую деятельность // Общество и право. 2010. №5 (32). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/osnovnye-napravleniya-optimizatsii-ugolovnogo-zakonodatelstva-ob-otvetstvennosti-za-nezakonnoe-vmeshatelstvo-dolzhnostnyh-lits-v>.



hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash samaradorligini oshirishda sohaga oid qonun va qonunosti hujjatlarini kodifikatsiya qilish taklif qilinmoqda¹⁰. Biz ham tadbirkorlik faoliyatiga qonunga xilof ravishda aralashish hamda unga to'sqinlik qilish bilan bog'liq jinoyatlar dispozitsiyalari blanket xarakterda bo'lganligi sababli jinoyat uchun javobgarlik muqarrarligini ta'minlash maqsadida tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq tegishli qonun va qonunosti hujjatlarini kodifikatsiya qilish zarurati mavjud, deb hisoblaymiz.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy mustaqillik - Yangi O'zbekistonning mustahkam asosidir. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz bir yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-fevraldagi PF-21-sonli "Tadbirkorlik subyektlarini toifalarga ajratish mezonlari hamda soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2022-yildagi "ochiq muloqoti"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-364-son qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 4-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan 2023-yildagi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-292-son qarori.
6. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (02.05.2012 y. O'RQ-328-son).
7. "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni (24.09.2012 y.)
8. "Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (05.04.2019 y).

¹⁰ <https://regulation.gov.uz/uz/document/13015>

